2.2. Ushbu Shartnoma matnini Veb-sahifada joylashtirish Pudratchining ushbu Shartnomani tuzish bo'yicha noma'lum miqdordagi shaxslarga qaratilgan ommaviy taklifi (oferta) hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2-qismi).

2.3. Ushbu Shartnomani tuzish Buyurtmachining ushbu Shartnomaga qo'shilishi bilan, ya'ni Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini umuman hech qanday shartlar, istisnolar yoki izohlarsiz qabul qilish (aksept) orqali amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasi).

2.4. Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilish (aksept) dalili Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda u tomonidan buyurtma qilingan xizmatlar uchun to'lov hisoblanadi. Agar Buyurtmachi o'zi tomonidan buyurtma qilingan xizmatlar uchun to'lovni tegishli bank tomonidan taqdim etilgan kredit mablag'lari hisobidan amalga oshirsa, Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilish (aksept) dalili Buyurtmachi tomonidan Pudratchining xizmatlari uchun haq to'lash maqsadida bank bilan tegishli shartnomani tuzishi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi 4-qismi).

To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti ta'minlangan taqdirda, Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilish (aksept) dalili tomonlar kelishilgan shartlarga muvofiq birinchi to'lovni amalga oshirish deb e'tirof etiladi.

2.5. Mazkur Shartnomada belgilangan tartibda ushbu ommaviy ofertani qabul qilib, Buyurtmachi Shartnomaning barcha shartlariga ular mazkur Shartnoma matnida ko'rsatilgan shaklda rozi bo'ladi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq ushbu Shartnoma asosida Pudratchi bilan shartnoma munosabatlariga kirgan shaxs sifatida ko'riladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 366-moddasi 4 va 5-qismlariga hamda 370-moddasi 4-qismiga asosan ushbu Shartnoma Tomonlar tomonidan oddiy yozma shaklda tuzilgan deb e'tirof etiladi.

2.6. Shartnomaning 2.4-bandida ko'rsatilgan harakatlar bajarilgandan so'ng, Pudratchi Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan tanlangan tegishli Kursga kirishni ta'minlaydi.

2.7. Veb-sahifa yoki boshqa usuldan foydalangan holda, Buyurtmachi Kursni tanlaydi. Pudratchining xodimi Buyurtmachiga Kurs uchun to'lov hisobini yuboradi. To'lov (tomonlar tomonidan kelishilgan shartlarga muvofiq to'lovning bir qismi) Pudratchining bank hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng, Buyurtmachiga elektron pochta orqali Kursga kirish huquqi beriladi (sotib olingan Kursga kirish ma'lumotlari bilan xat yuboriladi).

2.8. Kurs modullardan tashkil topgan. Pudratchi Buyurtmachiga har bir Kurs moduliga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlaydi, agar bosqichma-bosqich onlayn kirish avtomatik ravishda taqdim etilsa va/yoki Buyurtmachi tomonidan bo'lib-bo'lib to'lash rasmiylashtirilgan bo'lsa - bu holda Kursning tarkibiy qismlariga (Modullariga) onlayn kirish to'langan narxga mutanosib ravishda taqdim etiladi.

2.9. Kurs materiallariga kirish Veb-sahifada ko'rsatilgan muddat davomida taqdim etiladi. Agar texnik yoki yuridik imkoniyat mavjud bo'lsa, Buyurtmachining yozma arizasiga binoan Pudratchi belgilangan muddatdan keyin Buyurtmachiga Kursga kirishni ta'minlaydi.

### **3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

#### **1.1**

##### **3.1. Pudratchi quyidagi majburiyatlarga ega:**

3.1.1. Kirishni ta'minlash shartlari bajarilgandan so'ng, Buyurtmachiga o'zi tanlagan Kursga kirishni ta'minlash.

3.1.2. Buyurtmachiga ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha (juma kuni va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qisqartirilgan ish kunlarida soat 17:00 gacha) xizmatlar ko'rsatish va/yoki Veb-sahifaning ishlashi bo'yicha axborot yordamini taqdim etish. Qo'llab-quvvatlashga oid savollar Buyurtmachi tomonidan quyidagi elektron pochta manziliga yuboriladi: [info@geekbrains.team](mailto:info@geekbrains.team)

3.1.3. Agar Pudratchi tomonidan yoki Pudratchining aybi bilan Veb-sahifa faoliyatida xatolar/kamchiliklar aniqlansa, aniqlangan xato/kamchiliklarni o'z hisobi va o'z mablag'lari hisobidan bartaraf qilish.

3.1.4. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda va shartlarda Buyurtmachi tomonidan to'langan pul mablag'larini qaytarish.

3.1.5. Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash bo'yicha qonunda belgilangan talablarga rioya qilish.

##### **3.2. Pudratchi quyidagi huquqlar ega:**

3.2.1. Buyurtmachi bilan kelishilmagan holda Kurs mazmuniga (to'liq yoki alohida modullarning bir qismi) o'zgartirishlar kiritish.

3.2.2. Buyurtmachining roziligisiz ushbu Shartnomani bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish.

3.2.3. Buyurtmachidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajarish yoki tegishli tekshiruvni

o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash.

3.2.4. Veb-sahifada joriy narxni joylashtirish orqali Shartnoma bo'yicha xizmatlar narxini o'zgartirish. Bunda Buyurtmachi tomonidan to'langan Kursga kirish bilan bog'liq xizmatlarning narxi o'zgarmaydi.

3.2.5. Pudratchining texnik resurslari bo'yicha zarur rejali texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun Kurs va Veb-sahifaning ishlashini vaqtincha to'xtatib turish.

3.2.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun jalb qilinadigan uchinchi shaxslarni almashtirish.

### **3.3. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarga ega:**

3.3.1. Shartnomada belgilangan, hisoblarda kelishilgan va/yoki tomonlarning shaxsiy kabinetidagi xabarlar orqali kelishilgan shartlar doirasida xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish.

3.3.2. Xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'liq va ishonchli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish (shu jumladan Veb-sahifada ro'yxatdan o'tishda).

3.3.3. Veb-sahifaning funksional imkoniyatlaridan va Kursga kirishdan faqat shaxsiy, oilaviy yoki boshqa notijorat maqsadlarda foydalanish.

3.3.4. O'z shaxsiy kabinetining login va parolining maxfiyligini ta'minlash va kirish ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

3.3.5. Shaxsiy kabinetga ruxsatsiz kirish faktlari to'g'risida Pudratchiga zudlik bilan xabar berish, shuningdek Shaxsiy kabinetga kirish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan zarur choralarini ko'rish, shu jumladan Shaxsiy kabinetga kirishni tiklash mumkin bo'lgan maydonlarga nisbatan ham.

3.3.6. Veb-sahifada yoki uchinchi tomon manbalarida boshqa shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan, Veb-sahifada Shaxsiy kabinet ma'lumotlariga kirish ma'lumotlarini joylashtirmaslik, boshqa foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanmaslik yoki bunday ma'lumotlarni olishga ham urinmaslik.

3.3.7. Boshqa shaxs nomidan yoki uning o'rniga foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tmaslik yoki bunday foydalanuvchi sifatida shaxslar guruhini (birlashmasi) yoki yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkorni ro'yxatdan o'tkazmaslik.

3.3.8. Kurs materiallari bilan ishlashda va/yoki turli platformalarda Internetda Kurs va/yoki Pudratchining materiallarini muhokama qilishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, shu jumladan, umumiy chatlarda Kurs mavzusiga aloqador bo'lmagan xabarlarni qoldirishni oldini olish (fludning oldini olish), boshqa foydalanuvchilarga, ekspertlarga/uchinchi shaxslarga va Pudratchining xodimlariga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatish va haqorat qilishga yo'l qo'ymaslik.

3.3.9. Dasturiy ta'minotdan foydalanmaslik yoki Veb-sahifaning normal ishlashini buzishga qaratilgan harakatlarni bajarmaslik, viruslar, troyan yoki boshqa zararli dasturlarni yuklamaslik, saqlamaslik, nashr qilmaslik, tarqatmaslik, boshqalarga taqdim etmaslik yoki bundan boshqa tarzda foydalanmaslik; Pudratchining yozma ruxsatsiz Veb-sahifada ma'lumot to'plash uchun avtomatlashtirilgan skriptlardan (dasturlardan) foydalanmaslik.

### **3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:**

3.4.1. Kirishni ta'minlash shartlari bajarilgandan so'ng Kursga kirish huquqiga ega bo'lish (Shartnomaning ikkinchi moddasi).

3.4.2. Ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida xizmatlarni taqdim etish tartibi va Veb-sahifaning ishlashi bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot yordamini olish.

3.4.3. Kursga kirish huquqidan faqat notijorat maqsadlarda foydalanish.

3.4.4. Pudratchiga ushbu Shartnoma predmeti va/yoki Kurs yoki Shaxsiy kabinetning ishlashi bilan bog'liq mulohazalar, takliflar va/yoki sharhlarni yuborish.

3.4.5. O'zbekiston Respublikasining, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlashga doir qonun hujjatlariga rioya etilishini talab qilish.

## **4. Xizmatlarning narxi va to'lov tartibi**

4.1. Pudratchi xizmatlarining narxi Veb-sahifada ko'rsatilgan Kurs narxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Pudratchi innovatsiyalar IT-parkining kibernetikadagi rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tgan.

Pudratchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida kibernetik xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4751-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-sonli farmoniga muvofiq QQS to'lashdan ozod etilgan.

4.2. Buyurtmachi Pudratchining xizmatlari narxini (Kurs narxini) bir vaqtning o'zida 100% oldindan

to'lash sharti bilan Pudratchining bank hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi, agar Buyurtmachiga berilgan hisobvaraqa-fakturada boshqa shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa.

To'lov sanasi Pudratchining bank hisobvarag'iga mablag'lar kelib tushgan sana hisoblanadi.

Kurs narxini bo'lib-bo'lib to'lash sharti taqdim etilgan bo'lsa, Pudratchi o'tkazilgan to'lovlar miqdoriga mutanosib ravishda Kursning tarkibiy qismlariga (modullarga) kirishni ta'minlaydi.

4.3. Xizmatlar uchun to'lov Buyurtmachi tomonidan Pudratchi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan usullardan foydalangan holda tegishli miqdordagi mablag'larni o'tkazish yo'li bilan Pudratchining foydasiga amalga oshiriladi. Bunda Pudratchi bunday usullar ro'yxatini mustaqil ravishda belgilashga, Buyurtmachiga usullarning joriy ro'yxatini Veb-sahifaga joylashtirish orqali yetkazish yoki Buyurtmachini boshqa yo'l bilan xabardor qilish huquqiga ega. To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarishning batafsil qoidalari ushbu Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan.

4.4. Buyurtmachi Pudratchining xizmatlari uchun to'lovni tegishli bank tomonidan Buyurtmachiga taqdim etilishi mumkin bo'lgan kredit mablag'laridan foydalangan holda to'lash huquqiga ega (keyingi o'rinlarda kredit deb yuritiladi).

Tomonlar ushbu Shartnoma kredit shartnomasi emasligini, Pudratchi qarz beruvchi emasligi va u Buyurtmachi oldida tegishli majburiyatlarni o'z zimmasiga olmasligini tushunadilar va bunga rozilik bildiradilar; Buyurtmachi kredit Buyurtmachiga tegishli bank tomonidan ko'zda tutilgan shartlar asosida berilishini tushunadi va bunga rozilik bildiradi. Pudratchi Buyurtmachiga kredit beradigan bank shartlari, shu jumladan kreditdan foydalanganlik uchun foizlar miqdori va to'lovi, shuningdek bankning kredit berishni rad etishi uchun javobgar emas. Buyurtmachi kredit berish bilan bog'liq bank oldidagi majburiyatlarini mustaqil ravishda bajaradi.

4.5. Xizmatlarni taqdim etish sanasi Buyurtmachiga Kurs materiallariga onlayn kirish huquqini taqdim etish sanasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, tegishli Kursga (Modul, Kursning tarkibiy qismlariga, agar Buyurtmachi bo'lib-bo'lib to'lashni rasmiylashtirgan bo'lsa) onlayn kirish taqdim etilgan paytdan boshlab, Xizmatlar Buyurtmachiga taqdim etilgan hisoblanadi.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi dalolatnoma (keyingi o'rinlarda Dalolatnoma deb yuritiladi) va hisobvaraqa-faktura Buyurtmachining so'roviga binoan beriladi. Buyurtmachining so'rovi mavjud bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi xizmatlar ko'rsatilgan oydan keyingi oying 10-kunidan kechiktirmay Dalolatnomani va hisobvaraqa-fakturani imzolashi va Dalolatnoma va hisobvaraqa-fakturaning 1 nusxasini Pudratchiga qaytarishi shart.

Agar dalolatnoma va hisobvaraqa-faktura Buyurtmachi tomonidan keyingi oying 10-kuniga qadar imzolanmagan va (yoki) unga nisbatan e'tiroz bildirilmagan bo'lsa, ular Buyurtmachi tomonidan imzolangan hisoblanadi.

Pudratchi jismoniy shaxs bo'lmish Buyurtmachiga dalolatnoma va hisobvaraqa-fakturani yubormaslikka haqli. Bunday holda, ushbu Shartnoma bo'yicha xizmat Buyurtmachiga onlayn kirish huquqini taqdim etganidan keyin to'liq hajmda taqdim etilgan deb hisoblanadi.

## **5. Tomonlarning javobgarligi. Javobgarlikni cheklash**

5.1. Agar Buyurtmachi intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi Shartnoma shartlarini yoki uchinchi shaxslarga Kursga kirish huquqini bermaslik majburiyatlarini buzsa, Buyurtmachi Pudratchining yozma arizasiga binoan suddan tashqari tartibda har bir qoidabuzarlik uchun 10 000 000 (o'n million) so'm miqdorida jarima to'lashi shart.

5.2. Agar Buyurtmachi ushbu Shartnoma shartlarini buzsa, Pudratchi Buyurtmachining Kursga va/yoki Shaxsiy kabinetga kirishini faolsizlantirishga, shuningdek to'langan pulni qaytarmasdan Buyurtmachining Veb-sahifaga kirishini bloklab qo'yishga haqli.

5.3. Agar Buyurtmachiga bo'lib-bo'lib to'lash rejasi (kechiktirilgan to'lov) berilsa va u to'lovni amalga oshirish shartlarini buzsa, Pudratchi Buyurtmachidan belgilangan muddatni buzgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1% miqdorida jarima to'lashni talab qilishga haqli.

Buyurtmachi Pudratchining da'vosi (xabarnomasi) olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida penyani to'lashi shart.

5.4. Pudratchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- foydalanuvchilar, shu jumladan Buyurtmachi tashabbusi bilan yaratilgan tezkor messenger chatlarida (WhatsApp, Viber, Telegram) joylashtirilgan ma'lumotlarning mazmuni uchun;
- Buyurtmachi bunday chatlarda ma'lumot beradigan shaxsiy ma'lumotlardan uchinchi shaxslarning foydalanishi uchun;
- Internet tarmog'iga ulanish sifati va Buyurtmachi uskunasini hamda dasturiy ta'minotining ishlashiga;
- Buyurtmachi uskunasi texnik tavsiflari o'quv materiallaridan foydalanish talablariga, agar bunday talablar belgilangan bo'lsa, mos kelmasligiga;

- Shartnomada ko'zda tutilgan Xizmatlarning Buyurtmachining umidlariga mos kelmasligiga. Buyurtmachining subyektiv bahosi Xizmatlar sifati uchun obyektiv mezon bo'lmaydi;
- Buyurtmachi tomonidan Veb-sahifaning funksional imkoniyatlaridan foydalanishda yo'l qo'yilgan xatolar va noaniqliklariga (shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, xizmatga buyurtma berishda ma'lumotlarning noto'g'ri ko'rsatilishi va shunga o'xshash boshqa holatlar);
- Buyurtmachi tomonidan Shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun tanlangan to'lov shaklidan foydalanish (foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi) va bunday foydalanishning har qanday oqibatlari uchun (foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi);
- xizmatlarni to'lashdagi hisob-kitoblarda yoki belgilangan hollarda tegishli mablag'larni qaytarishda ishtirok etuvchi banklar yoki uchinchi shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) uchun.

5.5. Pudratchi Veb-sahifaning ishlashidagi nosozliklar va muammolarni oldini olish uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshiradi, lekin uning uzluksiz ishlashini kafolatlamaydi, bunday javobgarlikka ega emas va provayder, boshqa shaxslar yoki xizmatlar ishidagi texnik nosozliklar va uzilishlar yoki biron-bir sababga ko'ra Internet yoki Internet-resursga kirishni cheklash bilan bog'liq holda yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, Buyurtmachining shaxsiy hisobiga kirish ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlamasligi va Pudratchiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardagi yo'qotishlarni qoplaymaydi.

5.6. Tomonlarning hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday bajarmaslik holati ushbu Shartnomaning bajarilishiga to'sqinlik qiladigan va u tuzilganidan keyin yuzaga kelgan fors-major holatlarining (shu jumladan, lekin bular cheklanmagan holda, yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, ish tashlashlar, urush va harbiy harakatlar, epidemiyalar, pandemiyalar yoki Tomonlarning nazorati ostida bo'lmagan boshqa holatlar) natijasi bo'lsa.

5.7. Agar Buyurtmachi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini, shu jumladan Shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasa (tegishli ravishda bajarmasa), Pudratchi Kursga kirish uchun avval Pudratchi ma'lumotlarni yuborgan elektron pochta manziliga elektron shaklda bunday rad etish to'g'risida bildirishnomani yuborish orqali bir tomonlama suddan tashqari tarzda uni bajarishni rad etish orqali ushbu Shartnomani bekor qilishga haqli. Ushbu Shartnoma Pudratchi tegishli bildirishnomani yuborgan kuni yoki xabarnomada ko'rsatilgan muddatda bekor qilinadi va Kurs materiallariga kirish bir vaqtning o'zida faolsizlantiriladi.

## **6. Intellektual mulk. Maxfiylik**

6.1. Pudratchi tomonidan xizmatlar ko'rsatish doirasida Buyurtmachiga Pudratchi va/yoki Pudratchi tegishli shartnomalar/bitimlar tuzgan uchinchi shaxslarning intellektual mulkiga kirish huquqi beriladi (bundan keyin Intellektual mulk deb yuritiladi).

Intellektual mulkka Pudratchining va/yoki uchinchi shaxslarning intellektual faoliyati natijalari, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda audiovizual materiallar, elektron kompyuterlar uchun dasturlar, LMS (learning management system), uslubiy va/yoki ma'lumotnoma materiallari, topshiriqlar, axborot resurslari kiradi.

6.2. Intellektual mulkka nisbatan Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Pudratchi va/yoki uchinchi shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini buzadigan har qanday harakatlardan saqlanish, shu jumladan, Pudratchining yozma ruxsatisiz Intellektual mulkdan nusxa ko'chirmaslik, yozib olmaslik, foydalanmaslik, ko'paytirmaslik, har qanday shaklda tarqatmaslik, o'zgartirmaslik yoki hosilaviy asarlarni yaratish uchun undan foydalanmaslik;

- Pudratchi va/yoki uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan har qanday faktlar to'g'risida darhol Pudratchiga xabar berish;

- Veb-sahifadagi Shaxsiy hisob qaydnomasi, Shaxsiy kabinetga kirish uchun autentifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik. Login va parol yo'qotilgan taqdirda, shuningdek login va parolga uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy kirish holatlarida, Buyurtmachi bu haqida Pudratchining quyidagi elektron manziliga xabarnoma yuborish orqali uni darhol xabardor qilishga majburdir: [info@geekbrains.team](mailto:info@geekbrains.team)

Belgilangan xabarnoma yuborilgunga qadar barcha harakatlar Buyurtmachi tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi.

6.3. Maxfiy ma'lumotlarga Pudratchi tomonidan xizmatlar ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, Pudratchi tomonidan ochiq tarzda e'lon qilinmagan va ommaga ochiq bo'lmagan har qanday ma'lumotlar kiradi. Buyurtmachi xizmatlar ko'rsatish paytida Pudratchi tomonidan taqdim etilgan maxfiy ma'lumotlarni va boshqa ma'lumotlarni Pudratchining yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladi (jamoat uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar bundan mustasno).

6.4. Pudratchi o'z marketing materiallarida va/yoki reklama materiallarida Kurs materiallarini o'rganish

jarayonida Buyurtmachi tomonidan yaratilgan obyektlardan foydalanishga, shuningdek, Buyurtmachini Dasturiy ta'minot foydalanuvchisi va mijoz sifatida ko'rsatishga haqli.

## **7. Boshqa shartlar**

7.1. Buyurtmachi o'zining huquqiy layoqatli ekanligini va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Veb-sahifadan foydalangan holda tegishli operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yoshga yetganligini tasdiqlaydi.

7.2. Buyurtmachi quyidagi hollarda unga xizmat ko'rsatishdan bosh tortilishi mumkinligini bilishini va bunga so'zsiz roziligini tasdiqlaydi:

- bank yoki elektron to'lov tizimi tomonidan to'lov ruxsatnomasini tasdiqlamaslik;
- Buyurtmachi tomonidan Shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda pul mablag'larini qaytarish tartibining boshlanishida;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

## **8. Yakuniy qoidalar**

8.1. Ushbu Shartnoma Buyurtmachi Shartnomaning 2.4-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Tomonlar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

8.2. Pudratchi Buyurtmachini oldindan ogohlantirmasdan ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirishga, ushbu Shartnomaga yangi shartlar yoki ilovalarni kiritishga haqli. Buyurtmachi, bunday o'zgarishlarning mumkinligi haqida bilib, ular amalga oshirilishiga rozilik bildiradi. Agar Buyurtmachi ushbu Shartnomani bajarishda davom etsa, shu jumladan Dasturiy ta'minotdan, shu jumladan Kursdan, Veb-sahifadan bunday o'zgarishlardan keyin foydalanishni davom ettirsa, bu uning bunday o'zgarishlarga roziligini bildiradi.

8.3. Ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar matni yoki uning yangi tahriri Pudratchi tomonidan Veb-sahifada tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali jamoatchilik e'tiboriga havola etiladi.

8.4. Tomonlar sukut saqlash (ushbu Shartnomaning ayrim qoidalariga, shu jumladan tariflardagi o'zgarishlarga rozilik bildirmaslik to'g'risida yozma xabarnomalarning yo'qligi) Buyurtmachining roziligi va ushbu Shartnomaning yangi tahririga qo'shilishi deb tan olinishiga, shartsiz rozilik bildiradilar (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 105-moddasi 2-qismi).

8.5. Ushbu Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan bekor qilinishi mumkin.

Har bir Tomon boshqa Tomonga Shaxsiy kabinet orqali yoki elektron pochta orqali xabarnoma yuborish orqali mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish rejalashtirilgan sanadan 15 (o'n besh) kalendar kundan kechiktirmay bekor qilishga haqli.

8.6. Agar ushbu Shartnomaning har qanday shartlari qonuniy kuchini yo'qotsa, noqonuniy deb topilsa yoki ushbu Shartnomadan olib tashlansa, bu ushbu Shartnomaning qolgan shartlarining haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, ular o'z qonuniy kuchida qoladi va Tomonlar uchun majburiydir.

8.7. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

8.8. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar, da'volar va kelishmovchiliklar muzokaralar orqali hal qilinadi. Nizolarni belgilangan tarzda hal etishning iloji bo'lmasa, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda nizoni hal etishning sudgacha bo'lgan tartibiga majburiy rioya qilgan holda sudga murojaat qiladilar. Shartnoma bo'yicha o'z huquqlari buzilgan deb hisoblagan Tomon boshqa Tomonga da'vo arizasi berishga majburdir. Agar boshqa Tomonga jo'natuvchining shaxsini va yozishmalar qabul qiluvchiga yetkazilganligini aniqlashga imkon beradigan har qanday usulda yuborilgan bo'lsa, da'vo tegishli tarzda taqdim etilgan deb hisoblanadi. Qabul qiluvchining yo'qligi ko'rsatilgan yozishmalarining qaytarilganligi sudga ariza berishga to'sqinlik qilmaydi. Qo'yilgan talablarni asoslovchi va tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarining da'voga ilova qilinishi, agar ushbu hujjatlar ikkinchi Tomon uchun mavjud bo'lsa, majburiy emas hisoblanadi.

Da'voni qabul qilgan Tomon uni olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida boshqa Tomonni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Belgilangan muddatda da'voga javob yoki asoslantirilgan e'tirozlar olinmaganligi da'vo va unda ko'rsatilgan holatlarga rozilik hisoblanadi.

8.9. Tomonlar elektron aloqa vositalari yoki Veb-sahifadagi Shaxsiy kabinet orqali yuborilgan hujjatlarning yuridik kuchini tan oladilar.

8.10. Buyurtmachi Pudratchining xizmatlariga murojaat qilishda va/yoki Veb-sahifada ro'yxatdan o'tishda, shuningdek Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan Buyurtmachining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga



Pudratchiga o'z roziligini beradi, bu Veb-sahifada joylashtirilgan Maxfiylik siyosatida nazarda tutilgan shartlar bo'yicha, shuningdek, Buyurtmachiga uning iltimosiga binoan taqdim etilishi mumkin bo'lgan Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi bayonotga muvofiq amalga oshiriladi.

8.11. Buyurtmachi Pudratchiga Buyurtmachi tomonidan Internet tarmog'ida joylashtirilgan Pudratchi va u tomonidan taqdim etilgan xizmatlar to'g'risidagi Buyurtmachining sharhlaridan, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi Pudratchining rasmiy guruhlarida Buyurtmachi tomonidan qoldirilganlar sharhlardan Buyurtmachining to'liq ismini (famiyasi, ismi va otasining ismi) ko'rsatmasdan va Buyurtmachining rasmidan hech qanday tarzda foydalanmasdan, foydalanishga o'z roziligini beradi, bu shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, ularning ma'nosini buzmasdan qayta ishlash, shu jumladan qisqartirish, o'zgartirishni o'z ichiga olib, bunday harakatlar Pudratchining rasmiy veb-sahifalarida, Pudratchining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, Pudratchining reklama va boshqa materiallarida bunday sharhlarni joylashtirish va Pudratchining o'z mijozlariga yuboriladigan axborot xabarnomalari matnlariga kiritish maqsadida amalga oshiriladi.

Bunday rozilik Buyurtmachi tomonidan istalgan vaqtda Pudratchining Shartnomada ko'rsatilgan manziliga yozma ariza yuborish orqali qaytarib olinishi mumkin.

8.12. Buyurtmachi Pudratchiga Pudratchidan reklama xabarlar, Pudratchi va uning hamkorlari mahsulotlari, xizmatlari to'g'risidagi axborot xabarnomalari, reklama aksiyalar, chegirmalar va maxsus takliflar, turli o'yinlar, tanlovlar, so'rovnomalarni Buyurtmachining elektron pochta manzili, Buyurtmachining telefon raqami, shu jumladan «Viber», «Telegram», «WhatsApp» kabi messenjerlar orqali olish, pochta, SMS xabarlar, push-xabarnomalar orqali olish, shuningdek, bunday ma'lumotlarni Buyurtmachiga telefon orqali og'zaki ravishda yetkazishga rozilik bildiradi.

## **9. Tomonlarning rekvizitlari**

9.1. Tomonlar Buyurtmachining ma'lumotlarini Veb-sahifada ro'yxatdan o'tishda va/yoki Kursga kirish uchun ariza to'ldirishda va/yoki Pudratchining xizmatlarini to'lashda taqdim etgan ma'lumotlar deb hisoblashga rozilik bildiradilar.

9.2. Pudratchining rekvizitlari:

**«UBRAINS» MChJ**

Ro'yxatdan o'tish manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 4b-uy, 102-xona

Ro'yxatga olish raqami 982705, STIR 308432936

Asosiy hisob raqami: 20208000505381703001 – Mirobod tumani XATB “Orient Finans”,  
MMT 01071, bankning STIRi 207086151

## To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarish qoidalarini

**Mazkur To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarish qoidalarini (bundan keyin – Qoidalar deb yuritiladi) Pudratchi va Buyurtmachi o'rtasidagi Shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish va Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda xizmatlarning to'langan qiymatini qaytarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.**

1. Xizmatlarning yakuniy qiymati Buyurtmachi tanlagan Kursni hisobga olgan holda shakllanadi. Xizmatlar uchun to'lov Buyurtmachining tanloviga ko'ra Veb-sahifada ko'rsatilgan usullardan biri yordamida bank o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi.

2. Xizmatlar uchun to'lov Buyurtmachi tomonidan Pudratchi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan usullardan foydalangan holda tegishli miqdordagi mablag'ni o'tkazish yo'li bilan Pudratchining foydasiga amalga oshiriladi. Bunda Pudratchi bunday usullarning ro'yxatini mustaqil ravishda belgilashga, Buyurtmachiga bunday usullarning joriy ro'yxatini Veb-sahifaga joylashtirish orqali yetkazish yoki Buyurtmachini boshqa yo'l bilan xabardor qilish huquqiga ega.

3. Bank plastik kartalari orqali to'lovni amalga oshirishga ruxsat beriladi.

To'lovlar tegishli to'lov tizimining (keyingi o'rinlarda to'lov tizimlari deb yuritiladi) qoidalariga muvofiq, yopiq aloqa kanallari orqali tekshirish, shifrlash va ma'lumotlarni uzatishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda to'lovning maxfiyligi va xavfsizligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi. To'lov tizimlari orqali to'lovlarni amalga oshirish qoidalarini va tartiblariga kelsak, Buyurtmachi tegishli to'lov tizimlari qoidalariga amal qiladi va tushuntirish hamda maslahat olish uchun bevosita tegishli to'lov tizimlari operatorlariga murojaat qiladi. Pudratchi shu bilan o'z vakolatlari doirasida to'lov tizimlaridan foydalangan holda Xizmatlar uchun to'lov bo'yicha axborot yordamini taqdim etish huquqini o'zida saqlab qoladi, biroq ushbu ilovadagi hech narsa uni bunday axborotni ta'minlashga, taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi uchun javobgar bo'lishga yoki Buyurtmachi tomonidan xizmatlar va/yoki to'lov tizimini tanlashning boshqa oqibatlarini o'z zimmasiga olishga majbur qilmaydi.

4. Bank kartasi orqali xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish uchun to'lov usulini tanlashda Veb-sahifaning funkcionalligidan kelib chiqqan holda tegishli tugmani tanlash kerak, albatta agar tegishli funkcionallik mavjud bo'lsa, va to'lovni yakunlash uchun «To'lash» tugmasini bosish kerak.

5. To'lov to'lov tizimi operatorining va/yoki tegishli bankning xavfsiz to'lov sahifasiga bank kartasi ma'lumotlarini kiritish uchun yo'naltirilgandan so'ng amalga oshiriladi. To'lov sahifasiga ulanish va ma'lumotlarni uzatish 3D Secure texnologiyasidan foydalangan holda xavfsiz rejimda amalga oshiriladi.

6. Buyurtmachining bank kartasi ma'lumotlari Pudratchining serverida va/yoki Dasturiy ta'minotda va/yoki Veb-sahifada saqlanmaydi, Pudratchi Buyurtmachining to'lov rekvizitlariga kirish huquqiga ega emas.

Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar va to'lov rekvizitlarining maxfiyligi tegishli to'lov tizimining operatori va/yoki Mijozning banki tomonidan ta'minlanadi.

Buyurtmachi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar, shu jumladan to'lov rekvizitlari va bank kartasi ma'lumotlari uchinchi shaxslarga berilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7. To'lov bank tomonidan quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

7.1. bank kartasi Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallanmaganda;

Buyurtmachi bu haqida xizmat ko'rsatuvchi bank bilan bog'lanish orqali bilib olishi mumkin.

7.2. bank kartasi orqali to'lovni amalga oshirish uchun ushbu kartada yetarli mablag'lar mavjud emas bo'lganda.

Buyurtmachi bank kartasidagi pul mablag'larining mavjudligi haqida batafsil ma'lumotlarni ushbu bank kartasi taqdim etilgan bankka murojaat qilish orqali bilib olishi mumkin;

7.3. bank kartasi ma'lumotlari noto'g'ri kiritilganda;

7.4. bank kartasining amal qilish muddati tugaganda.

Kartaning amal qilish muddati odatda kartaning old tomonida ko'rsatiladi (bunda ma'lum bir oy va yil ko'rsatilgan bo'lib, aynan shu sanagacha kartadan foydalanish mumkinligini anglatadi).

Buyurtmachi bank kartasidagi pul mablag'larining mavjudligi haqida batafsil ma'lumotlarni ushbu bank kartasi taqdim etilgan bankka murojaat qilish orqali bilib olishi mumkin.

8. Pudratchi to'lov tizimi va/yoki bankning apparat-dasturiy kompleksini nazorat qilmaydi. Agar biron-bir xatolik natijasida Buyurtmachining mablag'lari hisobdan chiqarilgan bo'lsa, lekin to'lov tizimi va/yoki

bank tomonidan to'lovga ruxsat berilmagan bo'lsa, Buyurtmachiga pul mablag'larini qaytarish bo'yicha javobgarlik to'lov tizimining operatori va/yoki tegishli bank zimmasiga yuklanadi.

9. Buyurtmachi tomonidan to'langan to'lovlar quyidagi hollarda qaytarilishi mumkin:

9.1. Pudratchining aybi sababli xizmat o'z vaqtida taqdim etilmaganda;

9.2. Xizmat boshlanishidan oldin Buyurtmachi Shartnomani bekor qilish va pul mablag'larini qaytarish to'g'risida xabarnoma taqdim etganda.

9.3. ushbu Ilovaning 12-bandida nazarda tutilgan hollarda.

10. Buyurtmachi tomonidan to'langan pul mablag'larini to'liq yoki qisman qaytarish Buyurtmachining Pudratchining ret@geekbrains.team elektron pochtasiga yuborilgan yozma arizasi hamda buning asl nusxasini Pudratchining quyidagi pochta manziliga: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 4b-uy, 102-xona, yuborish orqali Pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

Pudratchi Buyurtmachidan pulni qaytarish uchun tasdiqlangan ariza shaklini to'ldirishni talab qilishga haqli.

11. Agar Buyurtmachi Pudratchiga Buyurtmachi tanlangan Kursga onlayn kirishni taqdim etgunga qadar Shartnomani bekor qilsa, kredit mablag'laridan foydalangan holda to'lov shartlarida to'lovni amalga oshirish bundan mustasno, Pudratchi Buyurtmachiga to'langan summaning 100 foizini qaytaradi.

12. Agar Buyurtmachi Pudratchi Buyurtmachi tomonidan tanlangan Kursga, kredit mablag'laridan foydalangan holda to'langan, onlayn kirishni ta'minlashdan oldin Shartnomani bekor qilsa, Pudratchi pul mablag'larini tegishli bankka qaytaradi, bunda bank tomonidan Pudratchidan ushlab qolingani komissiya summaları chegirib tashlanadi. Pudratchi to'lov uchun javobgar emas va Buyurtmachi va bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Buyurtmachi tomonidan bankka to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lardan foydalanlik uchun hisoblangan foizlar miqdorini Buyurtmachiga qaytarmaydi.

13. Agar Buyurtmachi Buyurtmachi tomonidan tanlangan Kursga Pudratchi onlayn kirish taqdim etgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Shartnomani bekor qilsa, Pudratchi to'langan summaning 50 foizini Buyurtmachiga qaytaradi. Bunda agar tanlangan Kursga onlayn kirish kredit mablag'lari hisobidan to'langan bo'lsa, Pudratchi pul mablag'larini tegishli bankka qaytaradi, bank tomonidan Pudratchidan ushlab qolingani komissiya summaları esa chegirib tashlanadi. Pudratchi to'lov uchun javobgar emas va Buyurtmachi va bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Buyurtmachi tomonidan bankka to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lardan foydalanlik uchun hisoblangan foizlar miqdorini Buyurtmachiga qaytarmaydi.

14. Bir ma'noda talqin qilish uchun:

Agar Buyurtmachi kredit mablag'laridan (bank mahsulotlari - iste'mol kreditlari, bo'lib-bo'lib to'lash va hk) foydalangan holda to'langan xizmatlardan voz kechsa, qaytariladigan summa va Pudratchining xarajatlari Pudratchi tomonidan Buyurtmachiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov sifatida bankdan olingan mablag'lar miqdoridan hisoblanadi.

15. Agar Buyurtmachi Buyurtmachi tanlangan Kursga Pudratchi onlayn kirishni taqdim etgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan keyin Shartnomani bekor qilsa, pul mablag'larini qaytarib berish amalga oshirilmaydi.

16. To'lovlar Buyurtmachining arizasi olingan kundan boshlab 30 kun ichida to'lov amalga oshirilgan hisob raqamiga qaytariladi (aniq qaytarish muddati Buyurtmachining bank kartasini chiqargan bankka bog'liq).

17. Buyurtmachining to'lov rekvizitlari o'zgargan taqdirda, shuningdek, xizmatlar uchun haq kredit mablag'laridan foydalangan holda bank tashkiloti tomonidan to'langanda, Buyurtmachi o'z arizasida pul mablag'larini qaytarish uchun bank rekvizitlarini ko'rsatish majburiyatini oladi.

Agar Buyurtmachi bank rekvizitlarini taqdim etmasa Pudratchi xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda oxirgi ko'rsatilgan Buyurtmachining to'lov rekvizitlari bo'yicha pul mablag'larining noto'g'ri va/yoki o'z vaqtida o'tkazilmaganligi va/yoki o'tkazilmaganligi uchun javobgar emas.

18. Kursga kirish Pudratchi Buyurtmachidan Pudratchining belgilangan hujjat shakli bo'yicha tuzilgan ushbu Ilovaning 12-bandiga muvofiq pulni qaytarish to'g'risidagi arizani olgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida to'xtatiladi.